

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XURRAMOV ISROIL ABDURASHIDOVICH

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING ETNOPEDAGOGIK ASOSLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Олгавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xurramov Isroil Abdurashidovich

Bo'lajak o'qituvchilarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning
etnopedagogik asoslari..... 3

Хуррамов Исроил Абдурашидович

Этнопедагогические основы развития экологической компетентности
будущих учителей..... 22

Khurramov Isroil Abdurashidovich

Ethno-pedagogical basis of formation of environmental competence in
future teachers..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Spisok o'publikovannых rabot
List of published works..... 48

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XURRAMOV ISROIL ABDURASHIDOVICH

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING ETNOPEDAGOGIK ASOSLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped849 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.iirpo.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Panjiev Qurboniyoz Berdievich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Hakimova Muhabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Musayev Jaxongir Payozovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped 26.01-raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpukengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-76-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (DSc),
professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.n.,
dotsent

S.S.Bulatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini etnopedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ekologik vaziyatlarni modellashtirish, bashorat qilish, idrok etish, ekologik madaniyatni shakllantirish, ziddiyatli ekologik muammolarni tahlil etish, talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish, turli ekologik ma'lumotlarni erkin olish va tarqatish, bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ekologik ta'limni pedagogik yo'nalishdagi kasbiy ta'lim tizimlari mazmuniga kiritish, barcha darajadagi pedagoglarni tayyorlashda ekologik ta'limning majburiyligi va fanlararo tayyorgarlik, atrof muhit bilan kasbiy faoliyat majmuaviy ekanini anglash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ekologik muammolarni hal etishda bo'lajak o'qituvchilarining atrof-muhit, tabiat va uning zaxiralari munosabatini o'zgartirish, mavjud ekologik muammolarni hal etishda o'qituvchilarning tabiiy zaxiralardan foydalanish madaniyatini rivojlantirish, oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning tabiiy zaxiralardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini tarkib toptirishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. "Aholining ekologik madaniyatini oshirish, yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga dahldorlik hissini tarbiyalash"¹ ustivor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2017-yil 13-iyul.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik ta’limi mazmuni va ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalari P.Berdanova, N.Bozorova, R.Djurayev, N.Isakulova, A.Malikova, O‘.Xo‘janazarov, A.Nig‘matov, Sh.Otaboyev, E.Turdiqulov, A.To‘xtayev, A.Ergashev, N.Nishonova; maktab o‘quvchilarining ekologik tafakkurini fanlararo rivojlantirish X.Norbo‘tayev; ekologik savodxonlikni rivojlantirish M.Aliqulova, S.Mamashokirov; o‘lkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik tarbiya Sh.Avezov, F.Saydamatov, ekologik kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari M.Murtozayeva va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida bo‘lajak o‘qituvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirish Y.Grishayeva, A.Gagarin, I.Spirin, Z.Tkacheva, N.Evstafiyeva, O.Napalov, O.Kalinina, G.Paputkova, O.Perfilova, R.Seytjanova, T.Anisimova; ekologik kompetentlikni rivojlantirish V.Beylinson, V.Bespalko, S.Grigoryev, I.Juravlev, D.Zuyev, A.Soxor, V.Smirnov, V.Bolotov, I.Jubil, S.Glazachev, D.Ermakov, G.Kamerilova, V.Lebedev, I.Ponomareva, O.Ponomareva, I.Suravegina, Dj.Raven, E.Karpenko, T.Opeshkina kabilarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijlik olimlardan O.Magntorn, N.Roczen, G.Kaiser, X.Bogner, M.Wilson, A.Ellis, J.Cjgan, K.Howey, P.Barthelmess, M.Schüz, R.Fuchs, D.Kučera, M.Prandini kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish atroflicha tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923121 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020-yy).

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarda ekologik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini baholash mezonlarini qo‘llash asosida takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning etnopedagogik asoslarini takomillashtirish jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinovda Termiz davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetining 320 nafar talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning etnopedagogik asoslarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishiga oid ilmiy, metodik, elektron manbalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil etish, interfaol pedagogik tajribalarni o'rganish, anketa, suhbat, kuzatish, modellashtirish, test, loyihalash, tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ekopedagogik muhitni yaratishga qaratilgan tashkiliy-metodik, ta'limiy-pedagogik, komponentlar didaktik yaxlitligini ta'minlash hamda ta'lim mazmunini pedagogik loyihalash va ekologik madaniyatning tuzilmaviy-mazmunli xususiyatlarini izohlovchi tushunchalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayoni yuksak ma'naviyatli shaxsning ekologik madaniyatini rivojlantirishning tadrijiyligiga erishish, ekologik faollik, mas'uliyat, burch singari sifatlar bilan milliy an'ana va qadriyatlar kabi ijtimoiy mental xususiyatlarni tabiiy resurslarni muhofaza qilishga undovchi bunyodkorlik qobiliyatlariga transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilar ekologik kompetentligini baholash mezonlari ekologik madaniyatning psixologik va huquqiy komponentlarini, motivatsion-qadriyatli, kreativ-faoliyatli, ta'limning uzviyligini ta'minlash hamda ekologik faollikni rag'batlantirishning hududiy va milliy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish modeli ekologik ta'lim texnologiyalari, tabiatga ma'naviy mas'ullikni oshiruvchi media loyihalar, didaktik vositalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish hamda ekodunyoqarashni yuksaltirishning didaktik imkoniyatlardan foydalanish amaliyligini intensiv ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning etnopedagogik asoslarini aniqlash asosida uning pedagogik shart-sharoitlari ekologik qadriyatlar asosida tahlil qilingan;

bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda "Ekologik madaniyat va barqaror taraqqiyot ta'limi" fanidan o'quv-uslubiy majmua yaratilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning etnopedagogik asoslarida ekologik madaniyatni rivojlantirish atrof-muhitga mas'uliyat bilan qarash jarayonlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanilgani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari yordamida tasdiqlangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarini ekologik kompetentligini rivojlantirish mazmuni, ekologiya fanini o'qitishning standart darajalari, bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning sifatini ta'minlashga qaratilgan kasbiy faoliyat davomida davriy va uzluksiz metodik tayyorgarligini oshirish modeli takomillashtirilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular bo'lajak o'qituvchilar ekologik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar, o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish: umumta'lim fanlari mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini takomillashtirish, o'qituvchilarning kasbiy faoliyati davomida davriy va uzluksiz metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda shu o'rinda ta'lim vositalaridan muntazam foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning etnopedagogik asoslari yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini ekopedagogik muhitni yaratishga qaratilgan tashkiliy-metodik, ta'limiy-pedagogik, komponentlar didaktik yaxlitligini ta'minlash hamda ta'lim mazmunini pedagogik loyihalash va ekologik madaniyatning tuzilmaviy-mazmunli xususiyatlarini izohlovchi tushunchalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid xulosalar O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan A7-XT-1-29687 raqamli "O'zbekiston Respublikasi hududida mavjud bo'lgan global ekologik muammolarni ta'lim vositasida hal etishga strategik yondashuvlar" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vaziflar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 18-apreldagi 02-07-183/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish imkoni kengaytirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayonini yuksak ma'naviyatli shaxsning ekologik madaniyatini rivojlantirishning tadrijiyligiga erishish, ekologik faollik, mas'uliyat, burch singari sifatlar bilan milliy an'ana va qadriyatlar kabi ijtimoiy mental xususiyatlarini tabiiy resurslarni muhofaza qilishga undovchi bunyodkorlik qobiliyatlariga transformatsiyalash asosida takomillashtirishga oid nazariy-ilmiy asoslangan tahliliy materiallar A7-XT-1-29687 raqamli "O'zbekiston Respublikasi hududida mavjud bo'lgan global ekologik muammolarni ta'lim vositasida hal etishga strategik yondashuvlar" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vaziflar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent

davlat pedagogika universitetining 2023-yil 18-apreldagi 02-07-183/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarining ekologik kompetentligini takomillashtirish samaradorligi oshirilgan;

bo'lajak o'qituvchilar ekologik kompetentligini baholash mezonlarini ekologik madaniyatning psixologik va huquqiy komponentlarni, motivatsion-qadriyatli, kreativ-faoliyatli ta'limning uzviyligini ta'minlash hamda ekologik faollikni rag'batlantirishning hududiy va milliy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan YOA-1-22 raqamli "Fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 18-apreldagi 02-07-183/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini etnopedagogik yondoshuvlar asosida rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish modelini ekologik ta'lim texnologiyalari, tabiatga ma'naviy mas'ulligini oshiruvchi media loyihalar, didaktik vositalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish hamda ekodunyoqarashini yuksaltirishning didaktik imkoniyatlardan foydalanish amaliyligini intensiv ta'minlash asosida takomillashtirishga oid takliflar O'zbekiston milliy teleradiokanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokanalining 2022-yil 6-dekabrda 06-28-2010-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun sharoit yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi: dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amalda joriy etilishi holati, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning etnopedagogik nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida, ta’lim jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish texnologiyasi, barqaror rivojlanishning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy, shuningdek huquqiy tomonlari, olimlar tomonidan ekologik kompetentlikni tamoyillarini tahlili va mexanizmlarini takomillshatirish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Ekologiya va atrof muhit muhofazasi fanining o‘ziga xos jihatlari, ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, o‘qitish nazariyasi va amaliyoti, ta’lim resurslarini yaratish metodikasi, ekologik madaniyat, ekologik savodxonlik kabi masalalar bilan bir qatorda ekologik kompetentlikni rivojlantirish mezonlari bo‘yicha P.Berdanova, N.Bozorova, N.Mirzayeva, R.Djurayev, N.Isakulova, A.Malikova, O‘.Xo‘janazarov, A.Nig‘matov, Sh.Otaboyev, E.Turdiqulov, D.To‘xliyev, A.To‘xtayev, A.Ergashev, N.Nishonova, X.Norbo‘tayev, M.Allayarov, M.Aliqulova, S.Mamashokirov va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan. Ular ekologik ta’lim mazmuni, o‘quvchi va talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalari, maktab o‘quvchilari ekologik tafakkurini fanlararo rivojlantirish metodikasi va ekologik savodxonlikni rivojlantirish tadqiq etilgan.

M.Rahimqulovanning bo‘lajak o‘quvchilarini darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ekologik qadriyatlar asosida tarbiyalash, N.Egamberdievaning atrof muhit ta’sirida talabalarni axloqiy tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslarini (pedagogika kollejlari misolida), N.Bozorovanning talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari, M.Aliqulovanning tabiatshunoslik darslarida O‘rta Osiyo allomalarining ekologiyaga oid qarashlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, N.Meliboyevning malaka oshirish jarayonida bo‘lajak o‘quvchilariga ekologik ta’lim berishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari haqidagi tadqiqot ishlari tahlil qilindi.

T.Kapustina, E.Juk, R.Simonaxina “Mutaxassislik faniniga kirish” fanini o‘qitishda ekologik kompetentlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha ilmiy ish olib borgan.

Turli darajada murakkab ekologik muammolarni hal qilish zarurati bilan bog‘liq holda ekologik kompetensiya har bir inson madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, unga asoslangan yangi turmush tarzi izchil taraqqiyotning zaruriy oraliq bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni insonning atrof-muhit va sog‘lig‘iga mas’uliyatli munosabatda bo‘lishini ta’minlaydigan ilmiy va amaliy bilim va ko‘nikmalar tizimi, qadriyat yo‘nalishlari va xatti-harakatlar va faoliyatning mafkuraviy munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Olimlar ekologik kompetensiyaning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilarni keltiradi: yangi sharoitda o‘z ijtimoiy funksiyasini anglash va faoliyatning ijodiy xususiyatiga bo‘lgan ehtiyoj; inson hayotining ekologik qadriyatlar tizimida o‘zini o‘zi belgilash qobiliyati va atrofda duniyoga munosabatni qadrlash; ekologik dunyoqarash va ekologik fikrlash; atrof-muhit sohasidagi axborotni idrok etish va tushunish, uni to‘g‘ri baholash qobiliyati; ekologik va huquqiy bilimlarga ega bo‘lish; ekologik vaziyatning rivojlanishini modellashtirish

va bashorat qilish qobiliyati; ekologiya nuqtai nazaridan asosli va tasdiqlangan murosali qarorlar qabul qilish va ularni amalda qo'llash qobiliyati; ziddiyatli ekologik va iqtisodiy vaziyatlarni qonuniy yo'llar bilan hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; o'z xatti-harakati va qilmishiga baho berish va javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyati.

O.Magntorn tabiat haqidagi bilimlarni o'rganish orqali ekologik savodxonlikni rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tgan. Uning tadqiqotida "tabiatni bilish" tushunchasi va tabiiyot ta'limida uning ulushi muhokama qilinadi. Tabiatni o'qish bilan bog'liq ba'zi ilmiy tushunchalar ta'riflangan. Tabiatni o'qish – organizmlarni tanib olish va ularni boshqa organizmlar bilan bog'lash, o'ziga xos yashash muhitida modda aylanishi va energiya oqimi bilan bog'liq materialni o'zlashtirish, deb qaraladi.

N.Roksen, J.Kayser, X.Bogner va M.Vilson ko'nikmalar, motivlar, e'tiqodlar va idrok kabi birinchi darajali omillar ekologik ta'sirlar bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak va birinchi darajali omillar faqat yoki asosan shaxsning malaka darajasiga bog'liqligi sababli birinchi darajali omillar orasida hech qanday yo'naltirilgan ta'sir kutilmaydi, deb qaraydi.

Ekologiyaning tarkibiy qismlarini tahlil qilish natijasida xulosaga kelish mumkinki, ekologik kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, ijodiy va faoliyatli tarkibiy qismlari, ekologik kompetensiyani rivojlantirish darajalariga e'tibor qaratish zarur. Bunda ongsiz qobiliyatsizlik, ongli qobiliyatsizlik, ongli kompetensiya, ongsiz kompetensiya kabi darajalarni mantiqan tushunib etish kerak, deb o'ylaymiz.

I.Vagnerning ta'kidlashicha, ekologik ta'limda etnopedagogik yondashuv o'smirlarda qadriyatni rivojlantirishga yordam beradi, ma'naviy, axloqiy, estetik munosabat, tabiatni sevish tuyg'usiga asoslangan vatanparvarlik, atrofdagi landshaftlar bilan qarindoshlik, hissiy tajriba va tabiat bilan bevosita aloqa qilish zarurati, tabiatga asoslangan ijodkorlik va hayot, tabiat, tirik sayyorani saqlashga qaratilgan ijodiy faoliyatni shakllantiradi.

N.Roshening tahliliga ko'ra, ekologiyaga xos kognitiv va motivatsion yondashuvni chuqur tushunish atrof-muhitga ekologik xulq-atvorni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ekologik xulq-atvor samarali bo'lishini ta'minlashda ekologik kompetensiya modeli yanada samarali targ'ibot qilishga yordam beradi.

P.Barthelmess, M.Schüz, R.Fuchs, D.Kučera, M.Prandini insonlar sayyoramizning ekologik chegaralarini yaqqol tan olishi, o'zgarishlarning asosiy agenti sifatida tan olingan o'zini o'zi mas'uliyatli his qiliishi, tarixiy qadriyatlarga asoslanishini Janubiy Koreya, Shveysariya va Chexiya talabalari bilan o'tkazgan tajribalarda yoritib beradi. Umimiy xulosada ekologik kompetentlikni rivojlantirishning etnopedagogik asoslarida nafaqat hozirgi, balki kelajak avlod uchun an'analarni hisobga olgan holda yashash muhitining kelajagi haqida, ular faol mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerakligini tushunib yetadi.

Ta'kidlash joizki, "ekologik kompetentlik" mazmuniga kelishdan oldin diniy, ijtimoiy, falsafiy an'analarning tabiatni idrok etishga bog'liqligi va tabiatni idrok etish esa tabiatni boshqarish bilan chambarchas bog'liqligini anglab etish kerak. Ekologik kompetentlikka erishishda ekologik savodxonlik, ekologiya haqidagi

bilimlarning ilmiy mazmuniga e'tibor berish, shuningdek, barqaror hayotga munosabat va tabiatning unsurlariga falsafiy nuqtai nazar qaratish kerak, deb o'ylaymiz. Chunki tabiat va ekotizimlarga oid bilimlarni o'rganish natijasida ekologik savodxonlik paydo bo'ladi, bunda tabiatga ko'nikish va inson faoliyatining tabiatga bevosita yoki bilvosita ta'siri tufayli undagi o'zgarishlarni kuzatish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Barqaror rivojlanish yashash maqsadning o'zi emas, balki tabiatni o'qish qobiliyatining paydo bo'lishi evaziga yuzaga keladi.

Biz "ekologik kompetentlik" deganda talabalarda muayyan ekologik bilim va tafakkurni vujudga keltirish asosida atrof-muhit (tabiat)ga ma'suliyatli munosabat, o'zining va o'zgalarning salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish hamda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga mas'ul munosabatini rivojlantirishni tushunamiz.

Ekologik kompetentlikni rivojlantirishdan maqsad – bo'lajak o'qituvchilarning ekologik ong va madaniyatini yuksaltirish uchun ekologiyaning ilmiy-nazariy asoslari, ta'lim yo'nalishiga mos ravishda ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish asosida atrof-muhitga ma'suliyatli munosabatda bo'lishini ta'minlashdir.

Etnopedagogika – bu etnik guruhlarining bolalarni tarbiyalash va o'qitishdagi empirik tajribasi (hissiy, amaliy tajribasi), oila, urug', qabila, millat, millat qadriyatlariga axloqiy, axloqiy va estetik qarashlar haqidagi fan. Etnopedagogikada an'anaviy madaniyat, turmush tarzi, oila va qarindoshlik munosabatlari shaxsning shakllanishiga ta'sirida ko'rib chiqiladi. Etnopedagogika - xalqning hayotiy tajribasi, bolalarni tarbiyalash, yosh avlodning tabiiy va ijtimoiy muhitdagi axloqiy va ekologik normalari va xulq-atvor qoidalari haqidagi fan. Shu asosda tabiatga bo'lgan munosabat shakllanadi va ekologik xulq-atvor haqida ma'lumotlar rivojlanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahliliga ko'ra, ekologik kompetentlikni rivojlantirish – bu ekologik dunyoqarash, tabiatni idrok etish va tushunish, ekologik bilimlarga ega bo'lish, ekologik qadriyatlarni bilish asnosida ekologik kompetentlikni rivojlantirishning etnopedagogik asoslarini o'rni haqida ko'nikmalarga, shuningdek, ekologik muammolarni modellashtirish va bashorat qilish, ekologik va iqtisodiy vaziyatlarni barqaror rivojlanish konsepsiyasiga amal qilgan holda qonuniy yo'llar bilan hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishdir.

Dissertatsiyaning **"Bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligining etnopedagogik asoslarini rivojlantirish mexanizmlari"** nomli ikkinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish shakllari; talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish metodlari, shakllari va vositalari: bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning etnopedagogik asoslarini ochib beradigan modellar bayon etilgan.

Ta'kidlash zarurki, oliy ta'lim muassasalarida (OTM) ekologik ta'lim berish jarayonida quyidagi bosqichlar alohida ahamiyatga ega: birinchi bosqich – ekologik ta'lim; ikkinchi bosqich – ekologik kompetensiya; uchinchi bosqich – ekologik madaniyat; eng yuqori, yakuniy bosqich – ekologik mentalitet.

Ekologik kompetensiyaga biz shaxsning "Tabiat – Inson – Iqtisodiyot" tizimida harakat qilish qobiliyatini belgilaydigan integral sifat, deb ta'rif beramiz.

Ekologik madaniyat shaxsning ta'limiy va kasbiy malakasining eng yuqori ko'rinishi bo'lib, ma'naviyat darajasida insonga xos ijobiy fazilatlarining to'liq shaklda namoyon bo'lishidir.

Demak, bo'lajak o'qituvchining ekologik kompetensiyasi – bu ekologik ta'lim jarayonida shakllangan shaxsning ajralmas sifati, uning umumiy qobiliyati va atrof-muhit faoliyatiga tayyorligi, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida olingan bilimlarini tajribada erkin qo'llay olishi va ekologik muammolarni hal qilishda mustaqil ishtirokidir.

Bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirishning dastlabki holat ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni e'tiborga olish zarur deb o'ylaymiz: eng munosib o'qitish vositalari bo'lgan multimedia ma'ruzalari, shuningdek iqlim o'zgarishi muammolari, havo ifloslanishini aniqlash, tuproq holatini o'rganish va boshqalar bo'yicha laboratoriya va amaliy ishlar; ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar; modulli loyihalar, jumladan “Yashil universitetlar – kelajak universitetlari”, “Ekologik monitoring”, “Maishiy chiqindilarni qayta ishlash” va boshqalar; talabalarning ilmiy konferensiyalari va seminarlari, yoshlar ekologik forumlari.

Bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari etib quyidagilarni belgilash mumkin:

talabalarni ekologik jamoat birlashmalari faoliyatiga jalb qilish. Ekologik mazmundagi o'zaro bog'liq muammoli vaziyatlarni hal qilish ketma-ketligi sifatida tashkil etish;

loyihalash va ishlab chiqarish faoliyati: tabiatdan foydalanish sohasida kompleks tadqiqotlar o'tkazish; tabiiy muhitning resurs ishlab chiqaruvchi funksiyasini ta'minlash va atrof-muhitga ta'sirni baholash; tabiiy sharoit va resurslardan foydalanishning xususiy va umumiy muammolarini aniqlash;

nazorat va ekspertiza faoliyati: tabiatni oqilona boshqarish jarayonlarini takomillashtirish; iqtisodiy loyihalarni ekologik ekspertizadan o'tkazish;

amaliyotga yo'naltirilgan yo'nalish: ilmiy-tadqiqot, loyihalash, ishlab chiqarish, nazorat va professional ekologik faoliyatning ekspert turlarini tahlil etish asosida talabalarning universitetda o'qish jarayonida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash; tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish menejmentini egallash; ekologik muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini namoyon etish; atrof-muhit masalalari bo'yicha bo'lajak mutaxassisning kasbiy fazilatlarini egallash.

Aytib o'tish joizki, ekologik kompetensiya; ijtimoiy-ekologik, ekologik-huquqiy, kasbiy-ekologik kompetensiya; ekologik ta'lim, ekologik va iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi kompetensiyani rivojlantirish muammolarini hal qilishda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning etnopedagogik asoslarini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash zarur.

Etnopedagogik bilimlar ekologik bilim, malakalar asosiga aylanib, urf-odatlar, marosimlar va bayramlarning uzviylik mexanizmi orqali avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Respublikamizda ekologik sanalar taqvimini doirasida o'tkazilayotgan bayramlar bunga misol bo'ladi. Jumladan, 15 aprel – ekologiyaga oid bilimlar kuni, 12 may – ekologik ta'lim kuni, 5 iyun – Jahon atrof muhitni muhofaza qilish kuni va

boshqalar. Bundan tashqari, Respublikamizda milliy bayram sifatida nishonlanadigan 21 mart – Navro‘z kuni ham ekologik qadriyatlarga asoslangan tadbirlar o‘tkaziladi.

Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning ekologik kompetensiyasini baholash mezonlari motivatsion-baholash, kognitiv, faoliyatli-amaliy, hissiy-konativ va aks ettiruvchi mezonlardan iborat.

Dissertasiyada ekologik kompetensiyaning quyidagi asosiy komponentlariga e‘tibor berilgan:

motivatsiyali komponent – atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikmalarni rivojlantirish, bilim va malakalarni yangilash va takomillashtirish, o‘zini o‘zi tarbiyalash motivlari, ehtiyojlari va qiziqishlar.

Gnostik komponent atrof-muhit muammolarini hal qilish elementlari mavjud bo‘lgan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, yangi dunyoqarashga ega mutaxassisni tarbiyalashga qaratilgan o‘quv jarayonining mazmunini belgilaydi. Gnostik komponent ma‘lumot, tajriba, qo‘shimcha bilimlarni to‘plashga hissa qo‘shadi, buning natijasida mutaxassis o‘z xizmat vazifalarini bajarishda yuzaga keladigan ekologik muammolarni hal qilishda qo‘llash uchun bilimlarni safarbar qilishi, yangilashi mumkin.

Tashkiliy-jarayonli komponent talabaning ekologik ekspertiza va monitoring bo‘yicha ishlarni rejalashtirish va tashkil etish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ekologik xavfsizlik darajasini oshirish bo‘yicha natijalarni tahlil qilish asosida chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.


Diversifikatsiya komponenti – talabaning atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qobiliyatlari, ko‘nikmalari va malakalarini diversifikatsiyalash. Bunda bo‘lajak o‘qituvchi ekologik muammolar yuzaga kelganda eng yaxshi qarorlar qabul qilish va muammoni hal etish uchun loyihalash qobiliyatini rivojlantirishi kerak bo‘ladi (1-rasm).

Dissertasiyada barqaror rivojlanish talablari asosida ekologik kompetensiyani barqaror rivojlantirish bo‘yicha kasbiy ta‘lim maqsadi belgilangan.

Barqaror rivojlanish talablari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirishda bo‘lajak o‘qituvchilarni ekologik tarbiyalash tamoyillari va vazifalari hamda ekologik kompetensiyani takomillashtirishning pedagogik shartlari aniqlangan. Mazkur jarayonda ekologik ta‘lim mazmuni, jumladan ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy, kreativ jihatlar o‘z aksini topgan. Ekologik kompetensiyani shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, ekologik ta‘lim prinsiplari va shakllantiriladigan ekologik kompetensiya komponentlari: motivatsion, gnostik, tashkiliy va protsessual, diversifikatsiya komponentlari ham keltirilgan.

Ekologik ta‘limda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va uslubiy asoslari taklif etildi, ular bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beradi. Ekologik kompetensiyaning falsafiy (gnoseologik, ontologik, aksiologik, prakseologik), ijtimoiy-ekologik, psixologik va pedagogik shakllari mavjud.

D.S.Ermakovning fikricha, ekologik kompetensiyaning ontologik jihati inson va tabiatning birligi, tabiatning barqarorligini saqlash uchun insoniyatning biosfera funksiyasini amalga oshirish zarurati orqali ochib beriladi.




1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilar ekologik kompetenligini rivojlantirishning nazariy jihatlari

Gnoseologik jihat ilmiy bilimlar rivojlanishidagi zamonaviy klassik bo'lmagan bosqichning xususiyatlarini aks ettiradi, u quyidagilar bilan tavsiflanadi: ekologizatsiya (dunyoni tushunishga, koinotning ma'nosini tushunishga, insonning maqsadini tushunishga yaxlit yondashuv), futurizm (kelajakka yo'naltirish, bilim va ta'limning oldindan ko'rish xususiyati); axborotlashtirish (materiya va energiyaga nisbatan axborot va intellektual resurslarning ustuvorligi).

Dissertasiyada etnopedagogik yondashuv ta'lim va tarbiya jarayonida milliy xususiyatlar, an'analar, madaniyat va urf-odatlardan foydalanishni nazarda tutish, etno-ekologik yondashuv ekologiya va etnik (an'anaviy, xalq) madaniyatining uyg'unligiga asoslanadi, zamonaviy inson ongini ekologlashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ekologik ta'limda ekologik va etnik-madaniy komponentlarning uyg'unligi tabiiy muhitga nisbatan shaxsning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga yordam berishi aniqlangan.

Aksiologik jihat, birinchi navbatda, ekologik ongning hukmron antropotsentrik tipi, insonning eksklyuzivligi paradigmasini o'zgartirmasdan turib, hozirgi ekologik inqirozdan chiqish imkonsizligiga ishontiradi. Prakseologik jihatdan transformativ faoliyatning ikkita vektorini sintez qilish uchun zarur shart-sharoitlar: insonning tashqi va ichki faoliyati (G'arb va Sharq sivilizatsiyasi) namoyon bo'ladi.



2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayoni modeli

Ekologik kompetentlikni izohlovchi asosiy xususiyatlar sifatida quyidagilar ta'riflangan: kategoriyali xususiyat (ekologik kompetensiya tushunchalarining mazmuni); funksional xususiyat (uslubiy, integrativ, tizimli, madaniy, ijtimoiy, prognostik, amaliy); tuzilmaviy-mazmunli (motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatli, hissiy-irodaviy, qadriyatli-semantik); tipologik (ekologik kompetensiya darajalari, mezonlari, ko'rsatkichlari).

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning samaradorligini aniqlash metodikasi”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinovning tashkil etilishi va natijalar tahlili bayon qilingan, talabalarining ekologik kompetentligini rivojlantirish samaradorligi asoslangan.

Tadqiqot doirasida muammoning psixologik, pedagogik va ijtimoiy xususiyatlari mohiyatini tahlil qilish uchun bo'lajak o'qituvchilarning faoliyatini o'rganish va ularning ekologik kompetentligi doirasida malakasini oshirishning samarali usullarini ishlab chiqish asosiy vazifa sifatida belgilandi va pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tajriba-sinovni amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

ekologik empatiya metodi tabiat go'zalligini his qilish, uning rang-barangligini anglash, dard va og'riqlarini sezish, unga hamdard bo'lish asosida qurildi. Ushbu metod bo'lajak o'qituvchilardagi shaxsiy obrazli tasavvurlarni hosil qilishni uyg'otish yo'li bilan amalga oshirildi. Shu asosda o'rganilayotgan ob'ektga “ko'chib o'tish”, uni chuqur his qilish va anglashga intiladi.

1-jadval

Bo'lajak o'qituvchilar bilimni baholash mezonlari

Baho	Talabning bilim darajasi
